

МАКТАВ О‘QUVCHILARINING О‘QUV FAOLIYATIGA MOSLASHUV JARAYONLARINING О‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmedova Zarina Jamilovna,

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi adaptatsiya jarayonlarini o‘rganishning ijtimoiy psixologik determinantlarini aniqlashga oid tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatuv, anketa, kontent-tahlil, shuningdek, mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganish tahlil etish va umumlashtirish; eksperiment; bashorat va tashxis metodlari olib borildi. O‘zbekistonning baxt indeksi bo‘yicha o‘rnini yaxshilashda psixologik ta’sirlarning ahamiyati sifatida insonlardagi hayot mazmuni va hayotdan qoniqish tushunchalariga bog‘liqligi, masalalarida global omillarni qamrab olgan izlanishlar asosida ilmiy-amaliy psixologik jabhalar yoritishga harakat qilindi. Maktabda moslashuv jarayonlariga oid mashg‘ulotlarni zamonaviy usullarda tashkil etishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Maqolada muloqotning kommunikativ tomoni, ya’ni o‘zaro munosabat yoki muloqotga kirishuvchilarining o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvni jarayonlari o‘rganildi, muloqotning interaktiv tomoni, ya’ni muloqotga kirishuvchilarining xulq-atvorlariga ta’sir jarayonlari o‘rganildi, muloqotning perseptiv tomoni, ya’ni muloqotga kirishuvchilarining bir birlarini idrok etishlari va tushunchalari bilan bog‘liq jarayonlari o‘rganildi.

Tayanch so‘zlar: Maktab, bolalar, psixologiya, adaptatsiya, determinant, ijtimoiy psixologiya, kognitiv, salomatlik, bolalar psixologiyasi, yosh davrlari, amaliy ko‘nikma, trening, konsultativ faoliyat.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССОВ АДАПТАЦИИ ШКОЛЬНИКОВ К ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Ахмедова Зарина Джамиловна,

Бухарский государственный университет Преподаватель кафедры психологии и социологии

Аннотация: В данной статье разработаны соответствующие выводы и рекомендации по выявлению социально-психологических детерминант изучения адаптационных процессов у учащихся младших классов. В процессе исследования, интервью, наблюдения, анкетирования, контент-анализа, а также изучения литературы по теме, анализа и обобщения; экспериментировать; были проведены методы прогнозирования и диагностики. В целях улучшения позиций Узбекистана по индексу счастья предпринята попытка на основе исследований, охватывающих глобальные факторы, пролить свет на научные и практические психологические аспекты, такие как значимость психологических эффектов в зависимости от представлений людей о содержании жизни и удовлетворенности жизнью. Разработаны научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование организации обучения процессам адаптации в школе современными способами. В статье изучена коммуникативная сторона общения, т.е. взаимодействие или процессы обмена информацией между участниками общения, интерактивная сторона общения, т.е. процессы влияния на поведение участников общения, изучена перцептивная сторона общения, т.е. изучались процессы, связанные с восприятием и пониманием участников общения.

Ключевые слова: Школа, дети, психология, адаптация, детерминанта, социальная психология, когнитивная, здоровье, детская психология, юношеские периоды, практические навыки, обучение, консультативная деятельность.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE PROCESSES OF ADAPTATION OF SCHOOL STUDENTS TO EDUCATIONAL ACTIVITY

Akhmedova Zarina Jamilovna,

Bukhara State University Teacher of the Department of Psychology and Sociology

Abstract: In this article, appropriate conclusions and recommendations were developed regarding the identification of social psychological determinants of the study of adaptation processes in elementary school students. In the process of research, interview, observation, questionnaire, content analysis, as well as the study of literature on the topic, analysis and summarization; experiment; prediction and diagnosis methods were carried out. In improving Uzbekistan’s position on the happiness index, an

attempt was made to shed light on scientific and practical psychological aspects based on researches covering global factors, as the importance of psychological effects, depending on people's concepts of life content and life satisfaction. Scientific-practical recommendations aimed at improving the organization of training on adaptation processes in the school in modern ways were developed. The article studied the communicative side of communication, i.e. interaction or the processes of information exchange between participants in communication, the interactive side of communication, i.e. the processes of influencing the behavior of participants in communication, the perceptive side of communication was studied, i.e. the processes related to the perception and understanding of the participants of the communication were studied.

Key words: School, children, psychology, adaptation, determinant, social psychology, cognitive, health, child psychology, youth periods, practical skills, training, consulting activity.

KIRISH. Jahonda ta'lim sohasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlarga yetarlicha baho bermay turib shaxsnинг taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos tarbiyaviy ta'sir etish juda mushkuldir. Tabiiyki, bu holat psixologlar zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Shu nuqtai nazardan maxsus dasturlar asosida tashkil etilgan psixologik xizmat jarayoni o'quvchilar guruhiy munosabatlar dinamikasi, guruhiy faoliyat motivatsiyasining muayyan darajada shakllanishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida har bir o'quvchi shaxsiga, uning guruhdagi mavqeiga ta'sir etuvchi ijtimoiy - psixologik omillarga jiddiy e'tiborni qaratish orqali o'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlodni jamiyat istiqbollari uchun yetarli darajada fidoiy, vatanparvar va xalqparvar qilib tarbiyalash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Albatta, bu dolzarblik zamirida har bir o'quvchi shaxsining guruhdagi mavqeい, guruhda o'z "menligi"ning ifodalaniши bilan bog'liq refleksiya va identifikatsiya jarayonlarining kechishi, o'ziga xos individual imkoniyatlarning namoyon etilishi kabi holatlarni tahlil qilish va shu tahlillarga tayanib har bir o'quvchi shaxsiga hamda uning guruhiga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonining nechog'lik muvaffaqiyatli tashkil etilishi yotadi. Ushbu jarayonda psixologik xizmat ko'rsatish orqali har bir o'quvchi shaxsining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHЛИLИ. Ma'lumki, bugungi kungacha juda ko'plab ilg'or ijtimoiy psixologiya vakillari tomonidan kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar guruhiy muammosini o'rganishga bag'ishlangan talaygina tadqiqotlar mavjud. Jumladan, xorij psixologlari D.Kortrayt, A.Zonder, D.Anze, G.Xomans, M. Doych, S.Ash, G.Kelli, X.Xekxauzen, D.Mayers, F.Olport, A. Maslou, G.Flamentlar tomonidan kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar guruhlarga turli xil individual imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish majmuasi sifatida qaralib bir qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari e'lon qilingan. Shuningdek, G.M.Andreeva, Ya.L.Kolominskiy, S.L.Budassi, R.S.Vaysman, A.I.Donsov, R.L.Krichevskiy, A.A.Kronik, I.V.Dubrovina, A.K.Markov, R.S. Nemov, N.N.Obozov, A.V.Petrovskiy, P.N.Shixirev, M.G.Yaroshevskiy kabi rus olimlari kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar guruhlarda ijtimoiy-psixologik moslashuvning muayyan jamoa sifatidagi shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ayni paytda o'zbek olimlaridan E.G.G'oziev, N.S.Safaev, G.Berdiev, G.B.Shoumarov, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, Sh.R.Barotov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, I.Maxmudov, T.M.Adizova, R.I.Sunnatovalarning tadqiqotlarida esa kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar guruhlardagi umumiyy ijtimoiy va etnopsixologik jihatlarni milliy muhit sharoitidagi keng ko'lamli imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning mavjudligi bugungi ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini belgilashda muhim o'rinn egallab borayotganligini alohida qayd etish mumkin.

MUHOKAMA. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar guruhiy va ularga psixologik xizmat ko'rsatish muammosi bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida tadqiqotga tegishli psixodiagnostik metodlarni tizimlashtirish ishlari olib borilmoqda. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar guruhlarda shaxslararo va guruhiy faoliyat motivatsiyasi namoyon etilishining psixologik mezonlarini tahlil qilish va ularga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini empirik jihatdan asoslash ishlari olib borilmoqda. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar guruhiy doirasida o'zini hissiy baholash

motivatsiyasining o‘rtacha, umumiylar va qiyosiy-tipik ko‘rsatgichlarini aniqlab o‘tilmoqda. Olingan empirik ma’lumotlarning statistik tahlillariga asosan psixologik xizmat doirasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarda ijtimoiy-psixologik moslashuvni o‘rganish va tadqiq qilish dasturini ishlab chiqish orqali tegishli ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar berildi. Tadqiqotning predmetini kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarda ijtimoiy-psixologik moslashuvni o‘rganish va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi o‘quvchilarga psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari tashkil etadi. Tadqiqotda qo‘ylgan vazifalarni bajarish maqsadida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi faolligini kuzatish va ular bilan individual hamda guruhiy suhbatlar olib borish, kontent tahlil, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi doirasida ijtimoiy faoliyat motivatsiyasi ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha T.Lirining “Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi” va K.N.Tomasning “Ziddiyatli vaziyatlarni o‘rganish” usullari, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi o‘z-o‘zini hissiy baholash bo‘yicha Riks-Uessmanning “Emotsional holatni baholash” uslubi, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarda ijtimoiy-psixologik relef ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida R.S.Nemovning “Guruhiy jamoa sifatida ijtimoiy-psixologik o‘z-o‘zini tahlil etish” metodikasi, empirik materiallarni saralash va natijalar tahlilini matematik-statistik mezonlar yordamida asoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi o‘quvchilarning rasmij va norasmiy guruhlarda shaxslararo faoliyat motivatsiyasini belgilovchi “ziddiyatli vaziyatlarda psixologik muhofaza”, “o‘z-o‘zini hissiy baholash” va guruhlardagi “ijtimoiy psixologik relef” ko‘rsatkichlari psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonida aniqlangan. Rasmij va norasmiy kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi ijtimoiy faoliyat motivatsiyasi “qat’iylik”, “mustaqillik”, “talabchanlik”, “hamkorlik”, “mas’uliyatlilik”, “ko‘ngilchanlik”, “kelishuv”, “moslashish” kabi xislatlarning rivojlanishiga hamda “o‘zini chetga olish”, “asabiylilik”, “hissiy tushkunlik”, “o‘z o‘ziga ishonchhsizlik” ko‘rinishlari pasayishiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarda shaxslararo va guruhiy faoliyat motivatsiyasi namoyon etilishining psixologik mezonlari tahlil qilingan va ularga psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari empirik jihatdan asoslangan. Kichik rasmij va norasmiy guruhlardagi shaxslararo faoliyat motivatsiyasining shakllanganlik darajalarini aniqlash bilan bog‘liq o‘rtacha, umumiylar va qiyosiy tipik ko‘rsatkichlar ko‘lami tadqiq etilgan va shu asosda psixologik xizmat doirasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarda ijtimoiy-psixologik moslashuvni o‘rganish va tadqiq qilish dasturi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotning natijalari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi psixologiyasi yo‘nalishini yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitgan va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarda psixologik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq muayyan tushunchalar ilmiy jihatdan asoslangan.

NATIJALAR

Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilardan iborat rasmij va norasmiy guruhlardan tanlandi. Bundan tashqari har bir tanlangan obyektda alohida kuzatishlar, suhbatlar, maxsus yo‘naltirilgan savol-javoblar va muayyan ijtimoiy-psixologik hodisalarga oydinlik kiritishga xizmat qiluvchi kontent tahlillar olib borildi. Umumiy respondentlar soni jami – 1021 nafarni tashkil etadi. Jumladan tadqiqotning birinchi bosqichida 415 nafar o‘quvchi ishtirok etgan bo‘lib, shundan 300 nafar o‘quvchi rasmij guruhlardan a’zolari bo‘lsa 115 nafar o‘quvchi esa norasmiy guruhi a’zolari hisoblanadi. Jumladan kichik rasmij guruhi a’zolari 41 soni 1-obyekt 30 nafar, 2-obyekt 25 nafar, 3-obyekt 25 nafar; 4- obyekt 30 nafar; 5-obyekt 25 nafar, 6—obyekt 28 nafar; 7-obyekt 24 nafar; 8-obyekt 27 nafar; 9-obyekt 29 nafar; 10-obyekt 30 nafar; 11-obyekt 30 nafarni tashkil etsa, tadqiqotga jalb etilgan kichik norasmiy guruhi a’zolari soni esa 1-obyekt bo‘yicha 10 nafarni, 2-obyekt bo‘yicha 12 nafarni, 3-obyekt bo‘yicha 4-obyekt bo‘yicha 12 nafarni, 5-obyekt bo‘yicha 10 nafarni, 6-obyekt bo‘yicha 8 nafarni, 7-obyekt bo‘yicha 9 nafarni, 8-obyekt bo‘yicha 13 nafarni, 9-obyekt bo‘yicha 10 nafarni, 10-obyekt bo‘yicha 8 nafarni, 11- obyekt bo‘yicha 12 nafarni tashkil etishi bilan alohida xarakterlanadi. Tadqiqot obyektlarining barchasida muktab psixologlari, sinf rahbarlari va muktab rahbarlarining yaqindan turib amaliy yordam bergenliklarini alohida qayd etish joizdir

Muktabda kichik muktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarda psixologik xizmat ko‘rsatish eng avvalo shu kichik muktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi shaxslararo munosabat motivatsiyasining shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki, muktab psixolog shaxslararo munosabat motivatsiyasi ko‘rinishlarini ijtimoiy jihatdan to‘laqonli tahlil etmas ekan bu guruhlardagi faoliyatini ijobiy tomonga yo‘naltirish juda mushkuldir. Shu nuqtai nazardan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, kichik muktab yoshidagi

o‘quvchilar guruhlar doirasidagi shaxslararo munosabat motivatsiyasi ko‘rinishlarini aniqlashni maqsad qilib qo‘ygan edik. Tadqiqot tahlili yanada mukammalroq bo‘lishi uchun har bir guruhdagi rasmiy va norasmiy qatlamlarni qiyosiy tahlil qilish orqali kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarga psixologik xizmat ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Bunda asosan T.Liri va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan (Lcory T. - 1958) test imkoniyatlaridan foydalanildi. Testni qo‘llashdan asosiy maqsad: Kichik rasmiy va norasmiy guruhlar uchun xarakterli bo‘lgan belgilangan yo‘nalishlardagi munosabat motivatsiyasi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va tahlillarga tayanib ularga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini belgilab olishdan iboratdir. Test talabi bo‘yicha shaxslararo munosabat motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan mezonlar: 1 oktant – qat’iylik – peshqadamlik 2 oktant – mustaqillik – o‘z-o‘ziga ishonchlilik 3 oktant – talabchanlik – qattiqqo‘llik (ba’zan tajovuzkorlik) 4 oktant – ishonchsizlik – shubhalanuvchanlik 5 oktant – ko‘ngilchanlik – tortinchoqlik 6 oktant – mo‘min qobil – tobe 7 oktant – hamkorlik qiluvchi – kelishuvchilik 8 oktant – mas’uliyatli – beg‘arazlik Test imkoniyatlaridan foydalanish tartibi: Mazkur test barcha ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek 128 ta savoldan iborat bo‘lib, har bir savolning (yoki vaziyatning) javobi belgilangan 8 ta oktantning biriga daxldorligi bilan belgilangan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi respondentlar tomonidan belgilangan har bir javob varianti shaxslararo munosabat motivatsiyasining u yoki bu ko‘rinishini tasdiqlaydi. Ayni paytda test bo‘yicha olingan natijalarining haqqoniyligi va realligini tasdiqlashga qaratilgan qo‘shimcha usullardan ham o‘rni bilan foydalanildi. (1-jadval)

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlar doirasida shaxslararo faollik motivatsiyasining oraliq diapazonlari (1-jadval)

№	oktантлар	n1			n2		
		O‘rt1	Oraliq	o‘rin	O‘rt1	Oraliq	o‘rin
	I	12,2	9,4-14,8	1	10,9	9,9-13,3	4
	II	9,3	8,5-10,0	3	106,	7,9-12,1	5
	III	9,7	7,0-12,0	2	13,9	12,0-	1

Demak, guruh oldidagi javobgarlik, faollik va mas’ullik hissi norasmiy guruhlardagi “menlik”ning namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etar ekan. Chunki, ular o‘z “men”ligini, o‘z g‘ururini va o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini shu mas’ullik orqali ifodalashga intilgan holda faoliyat ko‘rsatadilar. Tafovut shundaki, rasmiy guruhlarda negadir bunday shaxslararo guruhiy mas’ullikka jiddiy e’tibor qaratilmaganligini ko‘ramiz. Bu holat ehtimol rasmiy guruhlardagi guruhiy identifikatsiyaga xos ijtimoiy-psixologik jihatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Har qanday shaxs tom ma’noda ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois uning barcha ongli harakatlari, faoliyati va faolligi eng avvalo uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit, qolaversa unga bevosita ta’sir etuvchi shaxslarga yoxud shaxslararo munosabatlar motivatsiyasining shakllanishiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlar doirasida har bir shaxsga, aniqrog‘i o‘quvchi shaxsiga ta’sir etuvchi omillarni muayyan ijtimoiy-psixologik mezonlar assosida tadqiq qilish masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon etilmoqda. Bu jarayonda albatta psixologik xizmat tizimining o‘rni va ahamiyati nihoyatda beqiyos ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ayni paytda, ijtimoiy psixologiya fanining nazariy va metodologik manbalariga bevosita tayangan holda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlar faoliyati bilan bog‘liq o‘ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarni empirik tahlil qilish natijalari quyidagi yakuniy-ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Bugungi ijtimoiy psixologiyadagi nazariy-ilmiy va metodologik adabiyotlar tahlili kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlar doirasida psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonini tadqiq qilishga oid mukammal tadqiqotlarning yetarli darajada mavjud emasligini ko‘rsatdi. Holbuki, har bir o‘quvchi

shaxsini muayyan guruhdagi ijtimoiy mavqeini o‘rganish, undagi guruhiy faollik darajalariga baho berish, guruhdagi shaxsiy va guruhiy “Men”likning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, qolaversa shu tahlillar asosida uning ijtimoiy shaxs sifatidagi faolligini ta’minlash yo‘llarini izlash masalasi bugungi ta’lim-tarbiya muassasalarini oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

2. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun maxsus tanlangan va modifikatsiya qilingan usullar majmuasini qo‘llash orqali psixologik xizmat doirasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruuhlar va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlardagi shaxslararo faollik motivatsiyalarining o‘ziga xos ierarxik tizimiga oid ko‘rsatkichlar dinamikasini o‘rganish va tadqiq qilish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bodalev A.A. Shaxslararo muloqot psixologiyasi. Ryazan, 1994 yil.
2. Bodalev A.A. Muloqot psixologiyasi. Voronej, 1996 yil.
3. Bratus S.B. Katta yoshdagi shaxsni rivojlantirish muammolari to‘g‘risida // Moskva universiteti axborotnomasi. «Psixologiya» seriyasi. 1980 yil. № 2.
4. Brushlinsky A.V. Psixologiya fanidagi mavzu muammozi // Psixologik jurnal. 1991 yil. 6-son.
5. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Psixologik diagnostika bo‘yicha qo‘llanma. Kiev, 1989 yil.
6. Yosh va pedagogik psixologiya / ed. A.V. Petrovskiy. M., 1981 yil.
7. Gamezo M.V., Petrova E.A., Orlova L.M. Rivojlanish va pedagogik psixologiya. M., 2003 yil.
8. Ermolaev O.Yu. Psixologlar uchun matematik statistika. M., 2006 yil.
9. Kronik A.A., Kronik E.A. Inson munosabatlari psixologiyasi. M., 1998 yil.
10. Kalvin S., Linds G. Shaxsiyat nazariyasi. M., 1999 yil.
11. Leontiev A.L. Pedagogik aloqa M., 1979 yil.